KOMILOVA Sevaraxon
R.Glier nomidagi Respublika ixtisoslashtirilgan
musiqa maktabi o‘qituvchisi

MAQOM SAN'ATINING YOSHLAR TARBIYASIDAGI PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

For citation (iqtibos keltirish uchun, для цитирования): KOMILOVA S. Maqom san'atining yoshlar tarbiyasidagi pedagogik imkoniyatlari // Madaniyat ta'limi – Культурное образование – Cultural Education. № 2 (2026) B. 52.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada maqom san'ati vositasida yoshlarning milliy-estetik tarbiyasini shakllantirishning nazariy va metodik asoslari ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Maqom san'atining yoshlar ma'naviy dunyoqarashi, estetik didi va milliy o‘zlikni anglash jarayoniga ta'siri yoritiladi. Shuningdek, maqomni o‘qitishda zamonaviy pedagogik metodlar, interfaol yondashuvlar va amaliy ijrochilik faoliyatining ahamiyati asoslab beriladi. Tadqiqotda milliy-estetik tarbiyani kuchaytirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: *Maqom san'ati, milliy-estetik tarbiya, musiqa pedagogikasi, madaniyat ta'limi, metodika, estetik did, milliy meros, interfaol ta'lim.*

КОМИЛОВА Севарахон
Преподаватель Республиканской специализированной
музыкальной школы имени Р. Глиэра,

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСКУССТВА МАКОМА В ВОСПИТАНИИ МОЛОДЁЖИ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются теоретические и методические основы формирования национально-эстетического воспитания молодежи посредством искусства макома. Освещается влияние макома на духовное развитие, эстетический вкус и процесс формирования национального самосознания молодого поколения. Также обосновывается значение современных педагогических методов, интерактивных подходов и практической исполнительской деятельности в обучении макому. Разработаны методические рекомендации по усилению национально-эстетического воспитания.

Ключевые слова: *Искусство макома, национально-эстетическое воспитание, музыкальная педагогика, методика, эстетический вкус, культурное образование, национальное наследие, интерактивное обучение.*

KOMILOVA Sevarakhon
Teacher at the R. Glier Republican
Specialized Music School

PEDAGOGICAL POTENTIAL OF MAQOM ART IN YOUTH EDUCATION

ANNOTATION

This article analyzes the theoretical and methodological foundations of forming national-aesthetic education among youth through the art of maqom. It highlights the influence of maqom on spiritual development, aesthetic taste, and the formation of national identity in young people. The importance of modern pedagogical methods, interactive approaches, and practical performance activities in teaching maqom is also emphasized. Methodological recommendations for strengthening national-aesthetic education are developed.

Key words: *Maqom art, national-aesthetic education, music pedagogy, methodology, aesthetic taste, cultural education, national heritage, interactive learning.*

"Maqomlar shunchaki kuy emas, ular o'tmish ajdodlarimizning yuksak madaniyati, falsafasi va qalb nuri jamlangan bebaho xazinadir."
Yunus Rajabiy

Globallashuv jarayonida yosh avlodning ma'naviy va estetik dunyoqarashini shakllantirish masalasi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Ommaviy madaniyatning kuchayishi, axborot oqimining tezlashuvi hamda zamonaviy texnologiyalarning ta'siri natijasida yoshlarning musiqiy didi va estetik qarashlarida turli o'zgarishlar yuz bermoqda. Shu bois milliy musiqiy merosni, xususan maqom san'atini ta'lim jarayoniga chuqur singdirish muhim pedagogik vazifalardan biridir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 17-noyabrdagi PF-3511-son Farmoni maqom san'atini rivojlantirish va yosh avlodni milliy musiqiy meros ruhida tarbiyalashni davlat siyosati darajasida qo'llab-quvvatlovchi muhim hujjat sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. [1]. Mazkur farmon mamlakatda maqom san'atini asrab-avaylash, rivojlantirish va uni yosh avlod orasida keng targ'ib etishga qaratilgan muhim huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Madaniyat va san'at sohasini rivojlantirishga oid davlat dasturlarida milliy musiqiy merosni saqlash va uni zamonaviy ta'lim tizimiga integratsiya qilish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan. [3] Maqom san'ati o'zining badiiy-falsafiy mazmuni, murakkab musiqiy tuzilishi va chuqur estetik ifodasi bilan milliy madaniyatning eng yuksak namunalaridan biri sifatida e'tirof etiladi. U nafaqat musiqiy ijod mahsuli, balki xalqning tarixiy tafakkuri, ma'naviy qadriyatlari va estetik qarashlarini o'zida mujassam etgan murakkab san'at tizimidir. Shu jihatdan

maqom yosh avlodni milliy ruhda tarbiyalashda beqiyos ahamiyatga ega. Bu haqda maqom san'atining nazariy asoslari va rivojlanish yo'nalishlari ilmiy adabiyotlarda ham keng yoritilgan [5].Yoshlar orasida maqom san'atiga bo'lgan qiziqishni shakllantirish ko'p hollarda uning murakkabligi sababli qiyinchilik tug'diradi. Shu bois uni o'qitish jarayonida an'anaviy yondashuvlar bilan bir qatorda zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash, bosqichli va tizimli metodikani ishlab chiqish zarur. Bu esa maqomni faqat ijro san'ati sifatida emas, balki estetik tarbiya vositasi sifatida ham o'rganish imkonini beradi.

Maqom san'atining milliy-estetik tarbiyadagi o'rni

Maqom san'ati yoshlarning estetik didini shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Uning ohangdorligi, ritmik tuzilishi va badiiy ifodasi insonning hissiy dunyosiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Estetika san'at, madaniyat va tabiatning subyektiv qabul qilinishini o'rganadi. Estetika falsafaning aksiologiya (qadriyatlar haqidagi falsafiy ta'limot) sohasiga kiradi. "Estetika" terminini nemis faylasufi A.Baumgarten (1714—1776) ilmiy muomalaga kiritgan. Estetikaning sinonimi sifatida go'zallik falsafasi, san'at falsafasi, badiiy ijod falsafasi iboralari qo'llanib kelingan. [8] Maqomni tinglash jarayonida o'quvchilarda musiqiy idrok, emotsional sezgirlik va badiiy tasavvur rivojlanadi, shuningdek milliy o'zlikni anglash jarayonida ham muhim rol o'ynaydi. Chunki u xalqning tarixiy xotirasi, madaniy merosi va estetik qadriyatlarini o'zida mujassam etadi [2]. Yosh avlod maqom orqali milliy madaniyatning chuqur ildizlarini anglay boshlaydi, bu esa ularning ma'naviy tarbiyasiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik jihatdan qaraganda, maqom san'atini o'qitish nafaqat musiqiy bilim berish, balki shaxsning ma'naviy-estetik rivojlanishini ta'minlashga xizmat qiladi, uni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish zamonaviy musiqa pedagogikasining dolzarb yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. [5]

Metodik yondashuvlar va o'qitish tamoyillari. Maqom san'atini o'qitishda bir qator metodik yondashuvlardan foydalanish samarali natija beradi. Birinchi navbatda, bosqichma-bosqich o'qitish tamoyili muhim ahamiyatga ega. O'quvchilarga dastlab milliy kuylar, sodda ohanglar orqali musiqiy idrok shakllantiriladi, so'ngra murakkab maqom qismlariga o'tiladi. [7]

Tinglash va tahlil qilish metodi muhim o'rin tutadi. O'quvchilar maqom asarlarini tinglash orqali uning mazmuni, badiiy ifodasi va emotsional ta'sirini tahlil qilishni o'rganadi. Bu jarayon musiqiy tafakkurni rivojlantiradi.

Amaliy ijrochilik faoliyati katta ahamiyatga ega. Maqomning ayrim qismlarini kuylash yoki cholg'u asboblarida ijro etish orqali o'quvchilarda musiqiy ko'nikmalar va sahna madaniyati shakllanadi. [3]

Interfaol metodlardan foydalanish (musiqiy munozara, taqqoslash, obrazni tasvirlash) o‘quvchilarning dars jarayonidagi faolligini oshiradi va ijodiy fikrlashni rivojlantiradi.

XX asr boshlaridan o‘zbek bastakorlari maqom uslublaridan samarali foydalanib, milliy ohang va ladlarni zamonaviy musiqiy janrlarda namoyon etishgan. Hoji Abdulaziz, Sodirxon hofiz, Yu.Rajabiy, F.Sodiqov kabi ijodkorlarning kuy va ashulalari, shuningdek, V.Uspenskiyning “Farhod va Shirin”, R.Glier va T.Sodiqovning “Layli va Majnun” musiqali dramasi, M.Ashrafiyning “Dilorom” operasi kabi asarlar maqom asosida yaratilgan. Maqom san’ati badiiy-estetik jihatdan tiklanib, zamonaviy musiqa jarayonida muhim ahamiyat kasb etib kelmoqda. [4]

Maqom san’atini samarali o‘qitish uchun uni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish zarur. Multimedia vositalari, audio-vizual materiallar (maqom ijrolarining audio yozuvlari, videodarslar, konsert lavhalari va multimedia taqdimotlari) hamda raqamli platformalarning ta’lim jarayoniga integratsiya qilinishi maqom san’atini o‘zlashtirishning samarali omillaridan biri hisoblanadi. Elektron kutubxonalar, musiqiy arxivlar, onlayn ta’lim platformalari va raqamli resurslar o‘quvchilarning maqom namunalari bilan muntazam ishlashiga sharoit yaratadi. Bu esa musiqiy tafakkur, estetik idrok va mustaqil o‘rganish kompetensiyalarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Maqomni yoshlar hayotiga yaqinlashtirish uchun madaniy-ma’rifiy tadbirlar, jonli ijro kechalari va ijodiy uchrashuvlar tashkil etish muhimdir. Bunday muhit o‘quvchilarda milliy musiqaga nisbatan hissiy bog‘liqlikni kuchaytiradi.

Maqom san’ati masalalariga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy-ijodiy anjumanlar va simpoziumlar, jumladan, Samarqandda (1978, 1983, 1987, 2001), Berlinda (1988), Finlyandiyada (1996) va Istanbulda (1999) xalqaro musiqashunoslik simpoziumlari o‘tkazilgan. Maqom san’ati bo‘yicha ilmiy nazariy va amaliy bilimlar mamlakatning boshlang‘ich, o‘rta maxsus va oliy ta’lim muassasalarida o‘qitilib, malakali mutaxassislar tayyorlanmoqda. 1987-yildan boshlab, UNESCO qoshidagi An’anaviy musiqa xalqaro uyushmasining “Maqam” ilmiy guruhi faoliyat ko‘rsatmoqda. [4]

Yana bir muhim jihat — o‘qituvchining kasbiy mahorati. Zamonaviy musiqa o‘qituvchisi nafaqat ijrochi, balki metodik jihatdan tayyorlangan, innovatsion yondashuvlarni qo‘llay oladigan pedagog bo‘lishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, maqom san’ati vositasida yoshlarning milliy-estetik tarbiyasini shakllantirish bugungi musiqa pedagogikasining eng muhim yo‘nalishlaridan biridir. Maqomning badiiy va ma’naviy imkoniyatlaridan samarali foydalanish yosh avlodda estetik did, milliy o‘zlikni anglash va ijodiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar va an’anaviy musiqiy meros uyg‘unligi esa ushbu jarayonning samaradorligini yanada oshiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-3511-son Farmoni. “Milliy maqom san’atini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2017-yil 31-may.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-son Farmoni. “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to‘g‘risida”, 2019-yil 26-mart.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6000-son Farmoni. “Madaniyat va san’at sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil.
4. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
5. Hasanboysev J. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
6. Rajabov I. Maqom asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 2018.
7. Yusupov E. Musiqa o‘qitish metodikasi. – Toshkent, 2020.
8. Maxmudov T., Эстетика и духовные ценности, T, 1993.